

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

KREDIT- MODUL OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATI

**Sattarova Sarvinoz Abdurashid qizi
ADPI, biologiya yo‘nalishi 203- guruh talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kredit-modul o‘qitish tizimi, kredit-modulning asosiy vazifalari haqida, modulning afzallik va muammoli jihatlari tog`risida ma`lumotlar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: kredit, modul, ball, baholash, kredit to‘plash, o‘quv dasturi, o‘qish yuklamasi, ta`lim natijalari.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g`risida”gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturi amal hujjatda “respublikadagi kamida 10 ta oliy ta`lim muassasasini xalqaro e`tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta`lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va oliy ta`lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta`lim muassasasining 85 foizi, 2020-2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta`lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tilgan edi. O‘zi aslida kredit-modul nima ?

Kredit- modul tizimi, bu – ta`limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib boorish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit- ta`lim olish natijalariga ko‘ra o‘quvchi tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Ta`lim moduli esa- o‘zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladigan, o‘quvchida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta`lim dasturining tarkibiy elementi sifatida nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadigan alohida o‘quv fanidir. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e`tirof etiladi:

- O‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- Bitta fan, kurs(kredit)ning qiymatini aniqlash;
- Talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- Talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- Ta`lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisiga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi;
- Ta`lim jarayonida mustaqil ta`lim olishning ulushini oshirish.
- Talabaning fanni boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo‘ladigan malakasiga qo‘yiladigan talablar;
- Modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni, ya`ni maruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg`ulotlarning rejasi, mustaqil ta`limni baholash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar;
- O‘qitishning qisqacha bayoni: ta`lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Bu tizimning afzallik jihatlarini aytib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga alohida jiddiy e`tibor qaratiladi. Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Bu tizimning asosiy tamoyillari va elementlari qisman O‘zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimiga tatbiq qilingan. Ilg`or xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bakalavriatni ikkita bosqichga ajratish orqali, 1-2- kurslarda tayanch fanlarni, 3-4- kurslarda esa tanlov asosida ixtisoslik fanlarini o‘qitish mumkin. Demak,

“Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to`plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

endilikda kadrlarga bo`lgan ehtiyojni qondirish uchun 4 yil emas, 2 yil yetarli bo`ladi. Bu esa oliy ta`limning ish unumini, samaradorligini 2 barobar oshiradi. Hozirgi kunda O`zbekiston oliy ta`lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalshtirish, o`quv rejalaridagi takrorlanadigon fanlarni har xil mutaxassisliklar bo`yicha alohida o`qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o`quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo`ladi.

| Oliy ta`lim muassasalarida o`quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish sxemasi Bosqichlar | Tadbirlar | Ijro uchun mas`ullar | Bajarish muddatlari |
|---|---|--|---|
| 1-bosqich | Ta`lim dasturi doirasida o`quv jarayonini tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak ; 1.O`quv rejasи va fan dasturlarini jahон standartlariga moslashtirish . | Oliy ta`lim muassasasi | O`quv yili boshlangunga qadar |
| 2-bosqich | Ta`limning kredit tizimi bo`yicha talabalarini belgilangan tartibda 1-kursga qabul qilish. | Oliy ta`lim muassasasi | O`quv yili boshlangunga qadar |
| 3-bosqich | Talaba tomonidan ketma-ketlikda bilimlar to`plash uchun talabaning shaxsiy trayektoriyasini belgilash. | Oliy ta`lim muassasasi | 2020/2021 o`quv yilidan boshlab har bir o`quv yili boshlangunga qadar |
| 4-bosqich | Mobililikni tashkil etish. 1.hamkor tashkilotlar bilan kelishuvlar tuzish. 2.magistratura talabalariga ta`lim trayektoriyasini tashkil etish. 3.bakalavriyat talabalarining mobililik dasturlarini ishlab chiqish. | Oliy ta`lim muassasasi , Tegishli vazirliklar va idoralar | 2020/2021 o`quv yilidan boshlab doimo |
| 5-bosqich | Ta`lim sifatini ta`minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak; ta`limning kredit-modul tizimini akkredatsiyadan o`tkazish bo`yicha vakolatli tashkilotlar bilan bitim tuzish. | Oliy ta`lim muassasasi , Tegishli vazirliklar va Idoralar. | 2021/2022 o`quv Yildan boshlab doimo |
| 6-bosqich | Ta`lim berish natijasini tasdiqlash maqsadida xalqaro tan olinadigan oliy ma`lumot to`g`risidagi diplom berish. | Oliy ta`lim muassasasi . | 2022-yildan boshlab ta`lim dasturi yakunida. |

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, kredit-modul o‘qitish tizimi oliy o‘quv yurti o‘qituvchilarini yana ham o‘z ustida ko‘proq ishlashiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida talabalarga bilim berish sifatini oshishiga olib kelmoqda desak, mubolag`a bo‘lmaydi. Bu tizim talabalarni baholash uchun juda qulay va samarali hisoblanadi va hozirgi zamon talabi shuni taqazo etmoqda. Bu tizim biz talabalar uchun ham juda foydali.

Foydalilanligan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yi 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog`liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g`risida” gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g`risida”gi qarori.
3. Tojiyev. M, Mamadaliyev.K, Xurramov.A. rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim tizimi rivojlanishida kredit sistemasining o‘rni va ahamiyati. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari. Toshkent 2015.
4. Jalilovna M.M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), (2024). 130-133.